

bellashuvlar, tafakkur bahslari va ijrochilik talablaridan vujudga kelgan milliy qadriyat hisoblanadi.

“Milliy raqs tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) maqom raqsi (maqom ohanglarida ijro etiladigan raqslar); 2) katta o‘yin (Farg‘ona raqslari); 3) sozanda va mavrigixonlarning raqslari; 4) lazgi (Xorazm turkum raqslari). O‘zbekiston hududida Mumtoz raqs islomgacha bo‘lgan davrlardayoq (I-VII asrlar) shakllangan”<sup>37</sup>. Buxoro, Samarqand, Toshkent va Shahrisabzdan chiqqan raqqosalarning Xitoy imperatori saroyida mumtoz raqslarni namoyish etganligi haqida ma‘lumotlar saqlangan. Uyg‘onish davrida (IX-XII asrlar), ayniqsa Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Mumtoz raqs ravnaq topdi. XX asrda zamonaviy sahnalarda namoyish qilina boshladi. Bunda Mirza Hamdam Makaylik (Usta Muhammadxon), Tamaraxonim, Mahkam hofiz, Mukarrama Turg‘unboyeva va boshqalarning xizmatlari katta. "Dilxiroj", "Pilla", "Rohat", "Tanavor", "Bahor" kabi sahnaviy raqslarni mumtoz raqs tushunchasiga kiritish mumkin.

“Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimligidan guvohlik beradi. O‘zbek raqs san‘atining qadimiyligi, shakl va turlarining boyligi ajdodlarimiz asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq bo‘lganidan kelib chiqqan. Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” davridayoq raqs san‘ati shakllanib, xalq va professional raqs-ikki yo‘nalishda rivojlanishga kirishgan edi. Yunon — Baqtriya podsholigi davrida Turon raqs san‘atining darajasi Yunoniston, Vizantiya, Hindiston va Xitoy raqsi bilan bahslashishiga imkon bergan. Shahar madaniyatining rivojlanishi tufayli bu san‘at yanada mazmundor va rang-barang bo‘la boradi. IV-VIII asrlarga kelib O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yo‘llari bo‘ylab Rum, Misr, G‘arb o‘lkalarigacha, Sharqda Xitoy, Koreya va hatto Yaponiyagacha borib, o‘z san‘atlarini namoyish etadilar. Chunonchi, Xitoyda ajdodlarimizning "Xusyuan‘u" raqsi mashhur bo‘lgan. Shoir Yuan Chjan va boshqalar madh etgan”<sup>38</sup>.

Musulmonlik davrida ham O‘zbekiston sarhadlarida turli taraqqiyot bosqichlarida paydo bo‘lgan. Raqslar, o‘yinlar bir-biriga ta‘sir ko‘rsatib, yonmayon yashab kelgan. Shu bois shahar va qishloqlarda o‘tkazilgan to‘y, bayram va ma‘rakalardagi "Beshqarsak" kabi qadimiy o‘yinlar ham, “Katta o‘yin”, “Lazgi”, “Kema o‘yin”, “Ashshadaroz” singari katta umumlashmaga, ramziy timsollarga ega. Raqslarni ham, jangovar o‘yinlarni ham uchratish mumkin bo‘lgan. Uyg‘onish davrida raqs san‘atida ham chinakam ko‘tarilish yuz bergan, ko‘pgina qadimiy raqslar tiklanib, “Navro‘z”, “Mehrjon” bayramlarida namoyish qilingan. Abul Fayz Bayhaqiyning yozishicha, o‘sha davrda birgina Termiz shahrining o‘zida yuzlab san‘atkorlar bo‘lib, Amir Ma‘sudni kutib olish uchun Termizdan 300 dan ziyod san‘atkor Amudaryo bo‘yiga kelgan ekan. Buxoro, Gurganj, Kesh va boshqa shaharlarda ham raqsga

<sup>37</sup> E.Y. Saitova, N.E.Abrakulova Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari-T: 2015.128b.

<sup>38</sup> R.Dosmetova, N.A.Abraykulova Raqs-T: 2017.126.

e'tibor baland bo'lgan. Xorazmda Abul Abbas Ma'mun hukmronligi davrida raqs san'ati yaxshi rivojlangan.

Raqs san'ati, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar saltanatida ravnaq topgan. Unda xotin-qizlarning o'rni katta bo'lgan. Rang-baranglik, tarixiy qatlamlar raqsdan yaqqol ko'zga tashlangan. Olov atrofidagi o'yinlar, Anaxita va Rustam timsollariga bag'ishlangan o'yinlar, maqom raqslari, "Arg'ushtak" kabi raqslar shu jumladandir. "Munojot", "Tanavor", "Lazgi" raqslari ham aynan shu davrda malakali ijrochilar dasturidan mustahkam o'rin olgan. XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshida Sayyid badr, Tohir chakka, Mohchuchuk, Maqsudali, Katta Moh, Kichik Moh laqabli raqs ustalari shuhrat qozondi. Bu davrda raqs san'ati xalq raqsi va malakali raqs yo'nalishida rivojlandi.

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san'atida ham o'ziga xos uslublar maydonga keldi. Bu davrda jaholat, mutaassiblik kuchaygani sababli raqs san'atida o'smir bolalar va yigitlar yetakchilik qilgan. Ayollar raqsi esa sozanda (Buxoro amirligi), xalifa (Xiva xonligi) va yallachi (Farg'ona vodiysida) deb yuritilgan ayol san'atkorlardan iborat ixcham to'dalarning teatrlashgan dasturlarida rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ko'rsatib kelingan. Erkaklarning yig'inlarida raqqosalar xufiyona qatnashganlar.

XX asrda raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi yo'nalishida; zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida: milliy raqs unsurlaridan foydalangan balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi. Mazkur yo'nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o'tib, o'z shakli-shamoyili, mazmuniga ega bo'ldi. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Hamdamxon, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo'minov, Ma'mura Ergasheva, Yulduz Ismashova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova, Dilafro'z Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmati katta.

Mustaqillik davrida raqs san'ati yanada tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. M.Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" ijodiy birlashmasi tashkil topdi, birlashma qoshida maxsus jamg'arma tuzildi. Xoreografiya bilim yurti negizida esa Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi barpo etildi. "O'zbekraqs", "O'zbeknavo" ijodiy birlashmalari tarkibidagi ansambllar, xalq raqs merosini o'rganish va tiklash asosida yangi raqslar yaratish, an'anaviy raqslarni asrabavaylash va munosib darajada namoyish etish, yosh raqqos va raqqosalarni tarbiyalab yetishtirish bo'yicha olib borayotgan harakatlari ijobiy natijalar bermoqda. Milliy raqs ijrochiligi bo'yicha M. Turg'unboyeva nomidagi mukofot ta'sis etilgan. Bir qator davlat va xalq raqs ansambllari (masalan, "Bahor", "Tanavor" va boshqa), raqs ustalari jahonning turli mamlakatlarida bo'lib, o'zbek raqs san'atini namoyish etmoqdalar.

O'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma'naviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rni hamda

ahamiyati beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlari, milliy an'analari ifodalanadi.

“Mualliflar buyuk mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining turkiy nasrning betakror namunasi bo'lmish “Boburnoma” asaridan raqs san'ati haqidagi qimmatli fikrlarni keltirar ekan: “Milliy madaniy merosimiz haqida so'z ketganda, raqs yozuvi azaldan mavjud ekanligi ilmiy jihatdan tan olinishi shart. Zero, milliy raqs san'atimiz nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan ma'naviy-estetik qadriyatlar tizimidir. “Boburnoma” muallifi Sayid Badr ismli kishining raqsdagi ixtirosi va Hindiston lo'lilari “o'yun”idagi ijro jarayoni haqidagi fikrlarini juda aniq, ilmiy mukammallikda bayon etadi. Bu mukammallik zamirida atoqli davlat arbobi, ulug' shoir Bobur mirzoning san'atshunos-tilshunos-etnograf sifatidagi teran bilimi, raqs nafosatini bevosita amaliyot bilan bog'lab tahlil eta olish salohiyati borki, u o'zining qonuniy bahosini olishi shart. Va bu mulohazalar biz hali tariximizni to'liq bilmasligimizni, sharqda qadimdan raqslarni yozma ifodalash tajribasi borligini anglatadi”<sup>39</sup>, deydi.

Raqs - tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida raqs asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa u o'qish bilan baravar davom etadi, undan so'ng esa o'yin kamayib, uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi. Odamzod tarixining dastlabki davrlarida raqs hayotda muhim o'rin tutgan. Raqslar yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma'naviy kamol topgan. o'zbek xalq raqslari avlodlarni tarbiyalashda “hayot maktabi” vazifasini o'tagan. Raqslar yosh avlodni aqlan, ruhan va jismonan barkamol bo'lib yetishishlarida muhim o'rin egallab kelgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, raqs san'ati - o'ziga xos mazmun va chuqur ma'noga egaligi bilan xalq qalbiga yaqindir. Ayniqsa, xalq raqslari orqali xalqning tarixi, turmush tarzi, vodiy, voha va o'lkalariga xos ajib tarovati, mehnat jarayoni, yuksak madaniyati, insoniy fazilatlari, ayol-qizlarning ibo-hayosi, yigitlar va erkaklarning kuch-qudrati, g'ururi, bolalarning sho'xligi, bayram va xursandchiliklari tarannum etilishi bilan birga, insonning qayg'u-alamli kunlari, dard-u firog'i tasvirlanadi. Inson hayotini, tabiatdagi voqealarni raqs san'ati orqali xalqqa yetkazish uchun uning obrazlilikini ta'minlashi lozim. Raqsning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Sog'lom va barkamol avlodni ham jismonan, ham ma'nan barkamol etib tarbiyalashda milliy merosimiz va milliy raqslardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Milliy raqs bolalar hayotida shunday ahamiyat kasb etadiki, ularga qarab bolaning shaxsiyati, xarakteri, dunyoqarashi, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash mumkin. Demak,

<sup>39</sup> R.Dosmetova, N.A.Abraykulova Raqs-T: 2017.126.

mumtoz raqslarning tarbiyaviy ahamiyati katta, shu boisdan ham murabbiylar o'quv-tarbiyaviy jarayonda ulardan foydalana bilishlari lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" 2008- yil
2. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantrish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 2017. - 4-avgust.
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova O'zbek musiqasi tarixi-T: 2018.202b.
4. E.Y. Saitova, N.E.Abrakulova Xoreografiya va raqs san'ati asoslari-T: 2015.128b.
5. R.Dosmetova, N.A.Abraykulova Raqs-T: 2017.126.

## СВОЕОБРАЗИЕ ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ КАХХАРА

**Олимова Сурайё Алишеровна**

*Преподаватель кафедры  
русского языка и литературы  
Навоийский государственный  
педагогический институт*

**Аннотация:** *В данной статье отражены своеобразие и этапы развития творчества, проблематика рассказов узбекского писателя*

**Ключевые слова:** *Литература, сатира, рассказ, новатор.*

По мнению литературоведов, духовный облик любой нации определяется уровнем его художественной литературы. Литературные произведения любого направления могут быть зеркалом народной духовности. Если взглянуть в историю нашей литературы, можно увидеть таинственный, сияющий облик прошлого, мечты и надежды, стремления народа, облик эпохи и времени, своеобразная концепция творца успела сформироваться в качестве главного критерия художественной литературы. От других видов искусства художественные произведения отличаются тем, что могут прививать читателю некие нравственные концепты. Художественные произведения служат отображением духовного мира людей, отражают эпоху и среду, в которой было создано то или иное произведение. Художественная литература завоёвывает душу читателя при помощи слова. Как было сказано выше, оружие литературы — слово. Настоящую мощь слова мы можем наблюдать и в разнообразии жанров и направлений, которых особенно много в художественной литературе. Друг от друга все эти жанры и направления отличаются своими особенностями. Если поэзия затрагивает нежные струны души, представляя собой, зачастую, плод душевного волнения поэта, то в прозе преобладают повествовательные мотивы. В драматических же произведениях образы раскрываются через действие. Но для всех жанров есть и общие стороны, в частности, все они объединяются вокруг воспитательной функции литературы. Одним из направлений, выполняющих подобную функцию, являются произведения, написанные в юмористическом духе. Если посмотреть на историю узбекской литературы, можно увидеть, что сатирические произведения занимали в ней особое место. В развитие этого направления свой достойный вклад внёс и Абдулла Каххар.

«Каххар был настоящим человеком, и он оставил много бесценных произведений в литературе» говорил К. Симонов.

Абдулла Каххар является национальным художником, со свойственным ему индивидуальным стилем. Он свои темы и сюжеты находил в узбекской